



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safojevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Аброровна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	



RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI



Begimqulova Sevara Nurmamatovna
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
ORCID: 0009-0005-8809-0526

Annotatsiya. Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy va institutsional xususiyatlari, ularning zamonaviy moliya tizimidagi o'rnini hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning bank sektoriga joriy etilishi natijasida moliyaviy xizmatlarning sifati, tezkorligi va ommabopligi oshib, tranzaksiya xarajatlari qisqarishi hamda mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi ortishi asoslab berilgan. Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorlik, banklar raqobatbardoshligi va moliyaviy inklyuziyaga ta'siri baholangan. Shuningdek, ushbu xizmatlarni rivojlantirishda institutsional muhit, huquqiy-me'yoriy baza, axborot xavfsizligi va innovatsion infratuzilmaning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida bank tizimini raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish hamda raqamli iqtisodiyot rivojini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bank xizmatlari, raqamli iqtisodiyot, fintex, institutsional muhit, moliyaviy inklyuziya, bank innovatsiyalari.

Аннотация. Проанализированы экономические и институциональные особенности цифровых банковских услуг, их роль в современной финансовой системе и основные тенденции развития в условиях цифровой трансформации экономики. Показано, что внедрение цифровых технологий в банковский сектор способствует повышению качества, доступности и оперативности финансовых услуг, снижению транзакционных издержек и укреплению конкурентоспособности банков. Оценено влияние цифровых банковских услуг на эффективность деятельности банков, уровень финансовой инклюзии и развитие цифровой экономики. Особое внимание уделено институциональной среде, нормативно-правовой базе, вопросам информационной безопасности и развитию инновационной инфраструктуры как ключевым факторам эффективного функционирования цифровых банковских сервисов. По результатам исследования сформулированы научные выводы и практические рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование банковской системы в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровые банковские услуги, цифровая экономика, финтех, институциональная среда, финансовая инклюзия, банковские инновации.

Abstract. The economic and institutional characteristics of digital banking services, their role in the modern financial system, and current development trends are analyzed. The study demonstrates that the adoption of digital technologies in the banking sector improves the quality, accessibility, and efficiency of financial services, reduces transaction costs, and enhances customer service. The impact of digital banking services on economic efficiency, bank competitiveness, and financial inclusion is evaluated. Particular attention is given to the institutional environment, regulatory framework, information security, and innovative infrastructure as key factors influencing the effective development of digital banking services. Based on the research findings, scientific conclusions and practical recommendations are proposed to support the modernization of the banking system, expand access to financial services, and promote the sustainable development of the digital economy.

Keywords: digital banking services, digital economy, fintech, institutional environment, financial inclusion, banking innovation.



KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, bank xizmatlarini ko'rsatishning yangi shakllari va mexanizmlari vujudga keldi. Ayniqsa, mobil banking, internet banking, elektron to'lov tizimlari va fintex texnologiyalarining rivojlanishi bank xizmatlarining sifati, tezkorligi hamda ommabopligini sezilarli darajada oshirdi. Natijada raqamli bank xizmatlari nafaqat moliyaviy institutlar faoliyatining muhim tarkibiy qismiga, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylandi.

O'zbekistonda ham bank sektorini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrda "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son¹ qarori bilan raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, fintex ekotizimini rivojlantirish hamda raqamli xizmatlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi institutsional mexanizmlar joriy etildi [2].

Mamlakatda raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi statistik ko'rsatkichlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 12,3 million nafarga yetib, bir yil ichida 19 foizga oshgan. 2021-yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 20 milliondan oshgan bo'lsa, keyingi yillarda o'sish sur'atlari yanada tezlashgan.

2024-yilda O'zbekistondagi 25 dan ortiq tijorat banki internet va mobil banking xizmatlarini taklif qilgan bo'lib, aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi sezilarli ravishda kengaydi. Markaziy bank statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni rekord darajaga yetgan va yil davomida ushbu ko'rsatkich izchil o'sib borgan. 2025-yil oktabr holatiga ko'ra, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni 74 milliondan oshgan bo'lib, shundan qariyb 98 foizi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri kelgan.

Raqamli to'lovlar hajmi ham yuqori sur'atlarda o'smoqda. Markaziy bank va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston aholisining 72 foizi raqamli to'lovlardan foydalangan. Mazkur ko'rsatkich 2021-yildagi 39 foizga nisbatan qariyb ikki baravar yuqori bo'lib, mamlakatda naqd pulsiz hisob-kitoblar hamda raqamli moliyaviy xizmatlarning ommalashib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi nafaqat texnologik, balki institutsional omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Xususan, huquqiy-me'yoriy bazaning takomillashuvi, axborot xavfsizligi talablarining kuchaytirilishi, raqamli identifikatsiya tizimlarining joriy etilishi hamda fintex kompaniyalari faoliyatini tartibga solish masalalari bank tizimining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va institutsional xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi [3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini tahlil qilish, ularning bank tizimi samaradorligiga ta'sirini baholash hamda O'zbekistonda ushbu xizmatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Raqamli bank xizmatlarining kengayishi mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy resurslar aylanishi tezligini oshirish, naqd pul muomalasi ulushini qisqartirish hamda banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. An'anaviy bank xizmatlarida mijoz va bank o'rtasidagi munosabatlar filiallar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, raqamli bank modelida xizmatlarning asosiy qismi mobil ilovalar, internet platformalari va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali taqdim etilmoqda. Natijada banklar tomonidan bitta mijozga xizmat ko'rsatish xarajatlari kamayib, xizmatlar geografiyasi sezilarli darajada kengaymoqda.

Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati moliyaviy inklyuziya darajasining oshishida ham namoyon bo'lmoqda. Osiyo taraqqiyot banki hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2025-yilda mamlakat aholisining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi so'nggi o'n yillikdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga erishgan bo'lib, raqamli to'lov vositalari va mobil ilovalarning ommalashuvi ushbu jarayonning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish natijasida nafaqat ichki to'lovlar, balki valyuta operatsiyalarida ham masofaviy xizmatlarning ulushi ortib bormoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda jismoniy shaxslarning banklar bilan amalga oshirgan valyuta ayirboshlash operatsiyalarining 41 foizi masofaviy bank xizmatlari orqali bajarilgan. Bu esa raqamli bank platformalarining aholining kundalik moliyaviy faoliyatidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning barqaror faoliyatini ta'minlashga qaratilgan institutsional masalalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Xususan, kiberxavfsizlikni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish hamda fintex kompaniyalari va tijorat banklari faoliyatini samarali tartibga solish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrda "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son qarori: <https://www.lex.uz/docs/-1018646>



Shu nuqtai nazardan, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki huquqiy, tashkiliy va institutsional mexanizmlarning izchil takomillashtirilishini ham talab etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarining muvaffaqiyati rivojlangan raqamli infratuzilma, zamonaviy normativ-huquqiy baza hamda yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlik bilan bevosita bog'liq. O'zbekistonda ham bank sektorini transformatsiya qilish, ochiq bank tizimlarini joriy etish, fintex ekotizimini rivojlantirish va innovatsion moliyaviy mahsulotlar ulushini oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va institutsional rivojlanish mexanizmlarini chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli bank xizmatlari va fintex texnologiyalarining rivojlanishi masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlarning ko'plab ilmiy ishlarida yoritilgan. Xususan, P. Gomber, J.A. Koch va M. Siering o'z tadqiqotlarida raqamli moliya va fintex sohasidagi ilmiy yo'nalishlarni tizimlashtirib, ushbu sohaning texnologik hamda institutsional jihatlarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish zarurligini asoslab berganlar [6]. C. Skinner esa raqamli bankning strategik rivojlanish modellarini ishlab chiqib, an'anaviy banklarning raqamli bankka transformatsiyalanish yo'llarini tavsiflagan [8].

Rossiyalik olimlardan O.I. Lavrushin va N.I. Valentseva raqamli bank sharoitida bank xizmatlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini, jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda bank risklarini boshqarishdagi o'zgarishlarni tadqiq etganlar [7]. A.M. Tavasiev va T.Yu. Mazurina esa raqamli iqtisodiyot sharoitida bank faoliyatini tashkil etishning institutsional asoslarini o'rganganlar [9].

O'zbek olimlaridan D.T. Abdullayeva va B.S. Karimov mamlakatimizda fintex texnologiyalari hamda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan bo'lsa, Sh.R. Xolmo'minov raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini asoslab bergan. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya darajasining holati statistik jihatdan baholangan [4].

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarning umumlashtirilishi shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi raqamli bank xizmatlarining texnologik jihatlarini yoki fintex ekotizimining umumiy rivojlanish tendensiyalarini alohida yo'nalishlarda tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlarning 2020–2025-yillar davomidagi statistik dinamikasi hamda institutsional-huquqiy islohotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks yoritishga alohida e'tibor qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Mazkur tadqiqotda esa statistik dinamika va institutsional muhit o'zaro uyg'unlikda tahlil qilinishi bilan mavzu yanada kengroq yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, mavzuga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish va umumlashtirishda tahliliy-monografik metod qo'llanildi. Ushbu metod mavjud tadqiqotlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan 2020–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar statistik tahlil metodi asosida qayta ishlanib, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining yillik o'sish sur'atlari hisoblab chiqildi hamda vaqt oralig'idagi dinamikasi baholandi.

Qiyosiy taqqoslash metodidan yil kesimidagi ko'rsatkichlarni, xususan, 2020-yildagi 12,3 million foydalanuvchidan 2025-yildagi 74,2 million foydalanuvchigacha bo'lgan o'sishni o'zaro solishtirish, shuningdek, O'zbekiston bo'yicha olingan natijalarni Osiyo taraqqiyot banki tomonidan e'lon qilingan mintaqaviy moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari bilan qiyoslashda foydalanildi. Mazkur metod asosida O'zbekistondagi o'sish sur'atlarining nisbiy darajasi baholandi.

Olingan statistik ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda ifodalash maqsadida jadval-grafik metodidan foydalanilib, 2020–2025-yillar oralig'idagi foydalanuvchilar soni hamda o'sish sur'atlari jadval ko'rinishida taqdim etildi. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini nafaqat statistik, balki institutsional nuqtai nazardan ham baholash maqsadida tizimli yondashuv metodi qo'llanildi. Bunda me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda statistik ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli bank xizmatlari zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismiga aylanib, banklar faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi



yillarda bank sektorining raqamli transformatsiyasi jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Natijada an'anaviy bank xizmatlarining katta qismi mobil ilovalar, internet banking tizimlari va boshqa masofaviy platformalar orqali ko'rsatilmogda.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 57 milliondan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-aprel holatiga ushbu ko'rsatkich 62,1 million nafarga yetgan. Bu esa qisqa vaqt ichida raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talab yuqori sur'atlarda o'sib borayotganini ko'rsatadi.

2025-yil 1-oktabr holatiga kelib masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 74,18 million nafarga yetdi. Shundan asosiy qismi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich 2020-yildagi darajaga nisbatan bir necha baravar yuqori bo'lib, mamlakatda mobil banking va internet banking xizmatlarining ommalashganini yaqqol namoyon etadi.

Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi, avvalo, bank operatsiyalarining tezligi hamda xarajatlarining qisqarishida namoyon bo'ladi. An'anaviy bank amaliyotida mijozning bank filialiga tashrif buyurishi, qog'oz hujjatlarni rasmiylashtirishi va qo'shimcha vaqt sarflashi talab etilgan bo'lsa, raqamli bank xizmatlari orqali ushbu operatsiyalar bir necha daqiqada amalga oshirilmoqda. Bu esa banklar uchun operatsion xarajatlarning qisqarishini, mijozlar uchun esa vaqt va mablag' tejalishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning kengayishi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning paydo bo'lishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Raqamli bank xizmatlarining yana bir muhim iqtisodiy natijasi moliyaviy inklyuziyaning kengayishidir. Osiyo taraqqiyot banki hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamkorligida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2025-yilda mamlakat aholisining 72 foizi raqamli to'lov vositalaridan foydalangan. Mazkur ko'rsatkich raqamli moliyaviy xizmatlarning kundalik iqtisodiy hayotga tobora kengroq kirib borayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishida institutsional omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son² qarori bank-moliya tizimida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, fintex ekotizimini rivojlantirish hamda raqamli xizmatlar xavfsizligini ta'minlash uchun zarur institutsional asoslarni yaratishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, ularni yanada takomillashtirishni talab etuvchi ayrim masalalarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirish, shaxsiy ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish, hududlar kesimida raqamli savodxonlik darajasini oshirish hamda internet infratuzilmasini yanada rivojlantirish ushbu sohaning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bois raqamli bank xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash texnologik yangilanishlar bilan bir qatorda, institutsional boshqaruv hamda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini izchil takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. **2025-yilda** kuzatilgan yuqori o'sish sur'atlari ushbu yo'nalish kelgusida ham mamlakat moliya tizimining strategik rivojlanish omillaridan biri bo'lib qolishini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'sish dinamikasi (2020–2025-yillar)

Yil	Foydalanuvchilar soni (mln kishi)	O'sish sur'ati (%)
2020	12,3	19,0
2021	20,0	62,6
2022	30,2	51,0
2023	42,8	41,7
2024	57,0	33,2
2025	74,2	30,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, **2020–2025-yillar** davomida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 12,3 million nafardan 74,2 million nafargacha oshgan. Ushbu davrda umumiy o'sish qariyb olti barobarni tashkil etgan. Ayniqsa, **2021–2023-yillarda** mobil banking va internet banking xizmatlarining faol joriy etilishi natijasida foydalanuvchilar sonining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilgan. **2025-yilda** ham raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi natijasida foydalanuvchilar soni rekord darajaga yetgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son qarori: <https://www.lex.uz/docs/-1018646>



Mazkur holat mamlakatda raqamli moliyaviy xizmatlarning keng ommalashib borayotganini hamda bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil davom etayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida **2020–2025-yillar** davomida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining sezilarli darajada ortgani aniqlandi. Xususan, **2020-yildagi** 12,3 million foydalanuvchidan **2025-yilga** kelib 74,2 million foydalanuvchiga yetishi raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning barqaror yuqori sur'atlarda o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Bu holat bank xizmatlarining qulayligi, tezkorligi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'siri aniqlandi. Xususan, mobil banking va internet banking tizimlarining keng joriy etilishi natijasida banklarda operatsion xarajatlari qisqarib, xizmat ko'rsatish jarayonlari avtomatlashtirildi. Natijada mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilandi, tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqt sezilarli darajada qisqardi. Bu esa banklarning raqobatbardoshligini oshirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi moliyaviy inklyuziya darajasining oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi fuqarolar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish yanada qulaylashdi. Raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi natijasida naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ortib, iqtisodiyotda moliyaviy oqimlarning shaffofligi yanada kuchaymoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi ayrim muhim yo'nalishlar ham aniqlandi. Jumladan, kiberxavfsizlikni yanada mustahkamlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish, aholining raqamli savodxonligini oshirish hamda hududlar kesimida internet infratuzilmasini yanada takomillashtirish ushbu sohaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlarni izchil rivojlantirish maqsadida axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy himoya texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining institutsional asoslarini yanada mustahkamlash, fintex kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish bank sektorining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Natijada raqamli bank xizmatlari mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli bank xizmatlari zamonaviy bank tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda banklar raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda **2020–2025-yillar** davomida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining izchil o'sishi raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning yuqori sur'atlarda ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bu esa mamlakatda bank tizimini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijalar berayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy afzalliklari sifatida operatsion xarajatlarning qisqarishi, xizmat ko'rsatish sifati va tezligining oshishi, mijozlar uchun yaratilayotgan qulayliklarning kengayishi hamda moliyaviy inklyuziyaning rivojlanishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar banklarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish hamda mijozlar ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlarni taklif etish imkonini bermoqda. Natijada bank xizmatlarining samaradorligi ortib, iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi kengaymoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi institutsional muhit bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi, axborot xavfsizligini ta'minlash, raqamli identifikatsiya tizimlarini rivojlantirish hamda fintex kompaniyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash ushbu sohaning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni yanada mustahkamlash, shaxsiy ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish ushbu yo'nalishni izchil rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, raqamli bank xizmatlarini yanada rivojlantirish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini kengaytirish hamda mamlakatda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli bank sektorida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish hamda davlat, banklar va fintex kompaniyalari



o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kelgusida ushbu yo'nalish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son** «Raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimlari va masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi bo'yicha statistik byulleten.** – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. – 56 b.
3. Abdullayeva D.T., Karimov B.S. O'zbekistonda fintex texnologiyalari va raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari // **Moliya va bank ishi.** – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 45–53.
4. **Asian Development Bank.** *Assessment of the State of Financial Inclusion in Uzbekistan.* – Manila: Asian Development Bank, 2025. – 124 p.
5. Gomber P., Koch J.A., Siering M. Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions // *Journal of Business Economics.* – 2021. – Vol. 91, No. 5. – P. 565–580.
6. Lavrushin O.I., Valentseva N.I. *Tsifrovoy banking: sovremennye tendensii razvitiya bankovskikh uslug.* – Moskva: KNORUS, 2022. – 312 s.
7. Skinner C. *Digital Bank: Strategies to Launch or Become a Digital Bank.* – Singapore: Marshall Cavendish Business, 2020. – 352 p.
8. Tavasiev A.M., Mazurina T.Yu. *Bankovskoe delo v usloviyakh tsifrovoy ekonomiki.* – Moskva: Yurayt, 2021. – 287 s.
9. Xolmo'minov Sh.R. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari // **Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent, 2022. – № 4. – B. 112–120.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>